

5. Kaplan R.S. *Management Accounting and Control Systems*. — Boston: Harvard Business School Press, 2015.

6. Boynton J. *Modern Auditing*. — New York: Wiley, 2017.

MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING USTAV KAPITALI HISOBI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MODEL

Muratov Aziz Akbarovich

Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur teziz moliya bozori barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish doirasida aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali harakatini kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ustav kapitali o'sishi dinamikasi, aksiyalar harakati intensivligi, emissiya daromadi samaradorligi hamda dividend siyosatini integratsiyalovchi integral model taklif etildi. Ishlab chiqilgan indeks kapital sifati va investor ishonchini miqdoriy baholash imkonini beradi hamda moliya bozori barqarorligini mustahkamlashning analitik instrumenti sifatida asoslandi.

Kalit so'zlar: moliya bozori barqarorligi, ustav kapitali, emissiya daromadi, dividend siyosati, kapital samaradorligi, integral indeks.

Moliya bozori barqarorligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari esa moliya bozorining institusional asosini tashkil etadi. Ularning kapital barqarorligi va ustav kapitali harakati samaradorligi moliya bozorida investision muhit va ishonch darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda mahalliy hamda xorijiy olimlarning ustav kapitalga bergan ta'riflarini keltirib o'tamiz.

K.B. Urazov va M.E. Po'latov korxonalar xususiy kapitalining to'g'risida to'xtalganda uning muhim turi bo'lib ustav kapitaliga e'tibor qaratadi va unga quyidagicha tarif beradi "Ustav kapitali deganda korxonaning ta'sischi tomonidan unga kiritiladigan mablag'lar majmuasi, shuningdek, chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig'indisi tushuniladi" [1].

B.I. Isroilov va R.O. Xolbekov muallifligidagi "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darsligida "Ustav kapitali – korxonalar faoliyati boshlanishi uchun davlat yoki ta'sischi (mulkdorlar)ning ajratgan moddiy boyliklarining pul ko'rinishidagi qiymatidir" [2], – deb ta'rif berilgan.

A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev va S.A. Jumanazarovning "Buxgalteriya hisobi" darsligida shunday fikr beriladi "Ustav kapitali" tushunchasiga quyidagicha tarif

beriladi “Korxonaning xususiy kapitali – bu uning netto-aktivlari bo‘lib (sof aktivlar, mol-mulkning mulkdorlarga tegishli bo‘lgan sof qiymati), u aktivlar bilan majburiyatlar o‘rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi” [3].

Ye.V.Kuzmina va N.V.Morozovaning “Buxgalteriya hisobi” kitobida shunday ta’rif berilgan: “Korxonaning ustav kapitali – bu foyda olish va kreditorlarning manfaatlarini kafolatlash maqsadida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashkilot mulkining minimal miqdori [4].

Amaliyotda ustav kapitali asosan uning nominal miqdori va yillik o‘zgarishi orqali baholanadi. Biroq bu yondashuv kapitalning iqtisodiy sifati, investision jozibadorligi va moliyaviy barqarorlikka ta’sirini to‘liq ochib bermaydi.

Shu bois ustav kapitali harakatini kompleks baholashga asoslangan yangi analitik mexanizm ishlab chiqish moliya bozori barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Moliya bozori barqarorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- kapitalning real shakllanganlik darajasi
- investor ishonchi
- aksiyalar likvidligi
- dividend siyosati muvozanati
- korporativ boshqaruv sifati

Ustav kapitali mazkur omillarning markazida turadi. Agar kapital nominal ravishda o‘sib, ammo emissiya samaradorligi past bo‘lsa, bu bozorda spekulyativ risklarni kuchaytirishi mumkin.

Demak, ustav kapitali harakatini kompleks baholash moliya bozorida tizimli risklarni kamaytirish instrumenti hisoblanadi.

Muallif tomonidan ustav kapitali harakatini baholash uchun integral model ishlab chiqildi. K_1

1. Ustav kapitali o‘shish koeffitsiyenti – ushbu ko‘rsatkich ustav kapital rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadi.

$$K_1 = \frac{UK_{oxiri} - UK_{boshi}}{UK_{boshi}}$$

2. Aksiyalar harakati intensivligi – kapital jalb qilish faolligini baholaydi.

$$K_2 = \frac{Joylashtirilgan\ aksiyalar}{Jami\ aksiyalar}$$

3. Emissiya daromadi samaradorligi – investor ishonchining indikatorini.

$$K_3 = \frac{Emission\ daromad}{Ustav\ kapital}$$

4. Dividend siyosati koeffitsiyenti – kapital taqsimoti muvozanatini aks ettiradi.

$$K_4 = \frac{Dividend}{Sof\ foyda}$$

Integral indeks – indeks 0 dan 1 gacha intervalda baholanadi va kapital sifati hamda moliyaviy barqarorlik darajasini ifodalaydi.

$$IK = 0.25K_1 + 0.25K_2 + 0.25K_3 + 0.25K_4$$

0 – 0.25 → past samaradorlik

0.25 – 0.5 → o‘rtacha samaradorlik

0.5 – 0.75 → barqaror samaradorlik

0.75 – 1 → yuqori samaradorlik

Taklif etilgan integral model aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali harakatini kompleks baholash orqali kapital siyosati samaradorligini aniqlashning yangi metodologik asosini shakllantiradi. Ushbu yondashuv an’anaviy tahlil usullaridan farqli ravishda ustav kapitali o‘sishi, aksiyalar harakati, emissiya daromadi hamda dividend siyosati kabi ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa kapitalning faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham baholanishini ta’minlaydi.

Model buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan ma’lumotlar bilan moliyaviy tahlil indikatorlarini integratsiya qilgan holda kapital shakllanishi va harakatining haqiqiy iqtisodiy mazmunini ochib beradi. Natijada aksiyadorlik jamiyatlarining kapital siyosatini samaradorlik nuqtai nazaridan baholash, uning investision jozibadorligi va moliyaviy barqarorligi darajasini miqdoriy aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Integral indeks kapital sifatini baholash orqali investorlar ishonchini oshirish, korporativ boshqaruv qarorlarini asoslash va moliya bozoridagi tizimli risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Xususan, ustav kapitali harakatining dinamikasi va samaradorligi to‘g‘risidagi aniq ko‘rsatkichlar moliya bozori ishtirokchilari uchun shaffof axborot muhitini shakllantiradi.

Shu tariqa, taklif etilgan integral model moliya bozori barqarorligini ta’minlashning analitik mexanizmi sifatida xizmat qiladi. U kapital siyosati samaradorligini baholash, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash va aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy instrument sifatida asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Urazov K.B., Po‘latov M.E. *Buxgalteriya hisobi. Darslik.* – T.: “Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, 558 bet.

2. *Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik / B.I.Isroilov, R.O Xolbekov.* – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240–b

3. *Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov;* – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.

4. *Бухгалтерский учет : учеб. пособие / Е. В. Кузьмина, Н. В. Морозова.* – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 296 с.

5. O'zbekiston Respublikasining 13.04.2016 yildagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-404-son (yangi tahriri)

6. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son. (manba: www.lex.uz).

7. IFRS 9 – "Financial Instruments" (Moliyaviy instrumentlar), Xalqaro moliyaviy hisobot standarti

8. Akbarovich, M. A. (2025). Ustav kapitali: buxgalteriya hisobida uni hisobga olishning nazariy jihatlari. raqamli iqtisodiyot (цифровая экономика), (10), 1278-1287

ИНСОН КАПИТАЛИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ДОЛЗАРЪ МАСАЛАЛАРИ

Зайниддинов Аловиддин Зайниддин ўғли

Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Глобаллашув ва рақамли иқтисодиёт шароитида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, миллий рақобатбардошликни ошириш ва ижтимоий фаровонликни юксалтиришда инсон капитали ҳал қилувчи омилга айланмоқда. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, иқтисодий тараққиётнинг янги модели моддий ресурсларга эмас, балки билим, малака, инновацион фикрлаш ва соғлом меҳнат ресурсларига таянади. Шу боис инсон капиталига инвестициялар ҳажми ва самарадорлиги мамлакатнинг узоқ муддатли стратегик ривожланишини белгилаб берувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Инсон капитали назарияси илмий жиҳатдан XX асрнинг иккинчи ярмида шакланган бўлиб, унинг ривожланиши Т.Шульс, Г.Беккер ҳамда Ж.Минсер¹⁰² каби олимлар тадқиқотлари билан боғлиқдир. Улар таълим, соғлиқни сақлаш ва касбий тайёргарликка йўналтирилган сармояларни иқтисодий ўсишнинг муҳим манбаи сифатида асослаб бердилар. Бугунги кунда инсон капиталига инвестициялар давлат бюджети, хусусий сектор маблағлари, халқаро молиявий институтлар ресурслари ва давлат-хусусий шериклик механизмлари орқали молиялаштирилмоқда. Шу билан бирга, инсон капиталига инвестицияларни молиялаштиришда қатор муаммолар мавжуд: бюджет ресурсларининг чекланганлиги, инвестиция самарадорлигини баҳолаш методологиясининг етарли даражада такомиллашмагани, хусусий сектор иштирокининг пастлиги, ҳудудлар ўртасидаги номуносиблик, молиявий инструментлар

¹⁰² Блауг М. 100 великих экономистов после Кейнса. – СПб.: Экономикс, 2009. – 384 с., Becker G. S. Human Capital. – N. Y.: Columbia University Press, 1964., Minser J. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution. Journal of Political Economy, Supplement, October 1958